

## IQTISODIYOT NAZARIYASI



**Baxodirjonova Roxilabonu Boxodirjon qizi**  
Andijon mashinasozlik institute Sirtqi fakulteti  
Iqtisodiyot yo'nalishi  
2- bosqich 385-19 gurux talabasi



### Annotatsiya

Iqtisodiy bilimlar odamlarning iqtisodiy tafakkurini belgilab beradi. Iqtisodiy tafakkur shaxsning iqtisodiy voqelik va jarayonlarga munosabatini ifodalaydigan qarashlar, g'oya va tasavvurlar majmuidir. Iqtisodiy tafakkur iqtisodiy bilimlarga asoslanadi, bu bilimlar esa o'z navbatida ishonchli bo'lishi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda yuz berayotgan haqiqiy jarayonlarni aks ettirishi kerak. Maqolada iqtisodiyot va iqtisodiyot tushunchalariga ta'rif berildi. Iqtisodiy tushuncha atamasi o'rganildi. Iqtisodiy yo'nalishlar tahlil qilindi.

### Kalit so'zlar

Iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy tushunchalar, iqtisodiy yo'nalishlar, siyosiy iqtisod, ekonomiks, umumiy iqtisodiy nazariya iqtisodiy tizim, mulkchilik munosabat, ijtimoiy ishlab chiqarish, ayirboshlashni boshqaruvchi qonunlar.

**Iqtisodiyot** — yunoncha "ekonom" va "oykos" so'zlari birlashmasidan kelib chiqqan bo'lib, "ekonomika" qishloq xo'jalik asoslari haqida fan degan ma'noni anglatadi. "Ekonomika" so'zi ommaviy o'zbek lug'atiga o'tilganda "iqtisodiyot" atamasiga o'zgaradi. Iqtisodiyot cheklanmagan ehtiyojlarni, cheklangan resurslardan samarali foydalanib boshqarishni o'rganuvchi fan.

*Iqtisodiyot nazariyasi - insonlarning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun cheklangan resurslardan samarali foydalanishni va xo'jalik yuritish jarayonida turli tomonlar orasida yuzaga keluvchi munosabatlarni o'rganuvchi fan.*

Iqtisodiyot nazariyasi fani ko'pgina maktab va yo'nalishlardan iborat. Iqtisodiyot fani mudom o'zgarishda bo'lgani sababli uning taraqqiyoti va tarixiy retrospektivasi bilan iqtisodiyot tarixi fani shug'ullanadi.

Iqtisodiyotning qonun-qoidalari, tushunchalari va rivojlanish tamoyillarini o'rganuvchi umumiy iqtisodiy va nazariy fan. Iqtisodiyot nazariyasi xorij mamlakatlarida "Ekonomiks", "Ekonomika" va "Siyosiy iqtisod" nomlari bilan, MDH mamlakatlarida "Iqtisodiyot nazariyasi" nomi bilan yuritiladi. Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiyotni umumiy jihatidan va har bir iqtisodiy tizimga tadbiqan o'rganadi, iqtisodiy hodisalarni mikro va makro hamda jahon iqtisodiyoti darajasida tahlil etadi. Bu fan O'zbekistonda "Iqtisodiy bilim asoslari" sifatida maktablarda, "Iqtisodiyot asoslari" sifatida kollej va akademik litseylarda va "Iqtisodiyot nazariyasi" sifatida oliy o'quv yurtlarida o'rganiladi. Iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo'lib, tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi, taqsimlanishi va iste'mol qilinishi jarayonlarini o'rganadi.

Iqtisodiy tushunchalar — iqtisodiyotni o'rganishda qo'llaniladigan nazariy bilimlar bo'lib, ular real iqtisodiy voqelikning ilmiy ifoda etilishidir. Ular 2 guruhga bo'lib o'rganiladi: Umumiy iqtisodiy tushunchalar — iqtisodiy taraqqiyotning hamma bosqichlariga xos tushunchalar, mas, mehnat, ishlab chiqarish, mahsulot, ish kuchi, resurs kabilar. Ayrim ijtimoiy-iqtisodiy tizimga xos tushunchalar, mas, pul, talab, taklif, baho, kredit, emissiya, inflyasiya kabilar ayrim tizimga

xosdir. Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy jarayon va hodisalarning belgilarini umumlashtirish asosida iqtisodiy qonunlar ta'riflanadi.

Iqtisodiyot nazariyasining eng asosiy tahlil usuli — bu abstraksiyalash (mavhumlashtirish) asosida xulosalar chiqarishdir.

iqtisodiy fan ham iqtisodiy tizimning turli jihatlarini o'rganadi:

- a) siyosiy iqtisod – ishlab chiqarish munosabatlari tizimini;
- b) ekonomiks – ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning bozor tizimini;
- v) umumiy iqtisodiy nazariya iqtisodiy tizimni «tabiat – jamiyat» oqimi ko'rinishida tadqiq etadi.

Uning «kirish» tomonidan tabiiy va mehnat resurslari kelib tushadi, «chiqish» tomonidan esa ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq keluvchi mahsulotlar chiqadi. Shuning uchun iqtisodiyot, bir tomondan, unda tabiiy jarayonlarning maqsadga muvofiq joylashtirilishi ro'y bergani sababli tabiat tizimining bir qismi hisoblansa, boshqa tomondan u ijtimoiy tizining bir qismi hisoblanadi. Chunki iqtisodiyot ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq amal qilib, inson stivilizastiyasining rivojlanishi uchun moddiy sharoitlar yaratadi. Har qanday jamiyatda iqtisodiy tizimning mohiyati tabiiy resurslarni jamiyat tomonidan iste'mol qilishga yaroqli bo'lgan moddiy ne'matlarga aylantirishdan iborat bo'ladi.

Iqtisodiy fanning turli yo'nalishlari tomonidan hal etiluvchi vazifalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadqiqot predmetining xususiyati belgilanadi:

- a) siyosiy iqtisodning predmeti bo'lib moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonida kishilar o'rtasidagi munosabatlar hisoblanadi;
- b) ekonomiksning predmeti bo'lib ishlab chiqarishni bozor jihatidan tashkil etish asosida resurslarni samarali taqsimlash maydonga tushadi;
- v) umumiy iqtisodiy nazariyaning predmeti bo'lib resurslarning cheklanganligi sharoitida inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning rastional va samarali shakllarini tadqiq etish hisoblanadi, ya'ni har qanday «izm»lardan xoli bo'lgan jamiyatdagi dolzarb muammolarni hal etadi.

Bu uchta yo'nalish bir-biriga zid kelmasligi ma'lum. Ular o'rtasidagi farq yagona vazifa – iqtisodiy tizimni ochib berish vazifasi doirasida mavjud bo'ladi.

Iqtisodiy fanning turli yo'nalishlari predmetining xususiyatlari ularning quyidagi mazmunlari orqali yanada aniq namoyon bo'ladi:

1. Siyosiy iqtisod ishlab chiqarish munosabatlarini:
  - a) mulkchilik munosabatlarini;
  - b) ijtimoiy ishlab chiqarish va ayirboshlashni boshqaruvchi qonunlarni;
  - v) jamiyat iqtisodiy rivojlanishi qonunlarini tadqiq etish orqaliochib beradi.
2. Ekonomiks:
  - a) tovarning bozor narxini belgilab beruvchi qonuniyatlar, sabab va omillarni;
  - b) narx tashkil topishining bozor mexanizmini;
  - v) o'zini o'zi tartibga soluvchi tizim sifatidagi bozorni tadqiq etish orqali asosiy masalani hal etadi, uni tashkil etishning asosiy prinstiplarini ishlab chiqadi.
3. Umumiy iqtisodiy nazariya o'z predmetini:
  - a) cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammolarini;
  - b) moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida kishilarning iqtisodiy xulq-atvorini;
  - v) iqtisodiy o'sishning qonuniyatlari va omillarini tadqiq etish orqali o'rganadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сажина М., Чибриков Г. Экономическая теория: учебник для вузов. –М.: Норма, 2007
2. Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси.
3. Ғуломов С. Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти.

4. Борисов Е. Ф. Экономическая теория
5. Tutor`s support of future teachers Босма European journal of research and refltction in educational sciences volume 8 No .3, 2020 Part II ISSN 2056-5852 1-4 PirniyazovaN .V, BekimbetovaA.A, KhojaniyazovaI.J
6. Preschool Education And Modern Approach TowardsIt. The Analysis Of Educational Systems In Different Countries Босма TEST Engineering & Menegement. May-June 2020 SCOPUS ISSN: 0193-4120 Page No.29358 – 29364 7 б. А.Бекимбетова Ж.Ергалиева Г.Калыкназарова